

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i>	
MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI:	
MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i>	
BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI	
(Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i>	
IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i>	
MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA:	
O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL	
ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i>	
OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT	
BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i>	
JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR	
HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i>	
RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i>	
RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i>	
HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY	
ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i>	
СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ	
ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ	
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i>	
PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmurotov Umidjon Temurovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA	
SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i>	
JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING	
STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026

Accepted: 17 January 2026

Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THE IMPACT OF THE DIGITAL WORLD ON THE CONSCIOUSNESS OF YOUTH

Ahmadjonov Tolqinbek Akramjon oglu

Teacher of the Department of "Social Sciences" of the State Pedagogical University

E-mail: tolqinbekahmadjonov3@gmail.com

Abstract. This article analyzes the impact of digital technologies and information space on the consciousness of young people from a socio-philosophical perspective. The positive and negative aspects of the digital environment, in particular, its impact on the thinking, value system, moral views and social behavior of young people, are studied. The digital world is an important factor in shaping the consciousness of young people, and if its influence is left unchecked, it can lead to spiritual alienation, information dependence and identity crisis. At the same time, the digital environment, if properly directed, has the potential to increase the intellectual potential and social activity of young people.

Keywords: digital society, youth consciousness, information space, social networks, digital culture, spirituality.

RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li

ADPI "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar va axborot makonining yoshlar ongiga ko'rsatayotgan ta'siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Raqamli muhitning ijobiy va salbiy jihatlari, xususan, yoshlarning tafakkuri, qadriyatlar tizimi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siri o'rganiladi. Raqamli olam yoshlar ongini shakllantirishda muhim omil bo'lib, uning ta'siri nazoratsiz qolsa, ma'naviy begonalashuv, axborotga qaramlik va identifikatsiya inqiroziga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli muhit to'g'ri yo'naltirilsa, yoshlarning intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini oshirish imkoniyatiga ega.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, yoshlar ongi, axborot makoni, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli madaniyat, ma'naviyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N21>

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, yoshlar ongiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt va mobil texnologiyalar jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Yoshlar hayotida raqamli olam nafaqat axborot manbai, balki ijtimoiylashuv, o'zini namoyon etish va dunyoqarashni shakllantirish vositasiga aylandi. Zamonaviy yoshlar "raqamli avlod" sifatida tavsiflanib, ularning ongi avvalgi avlodlarga nisbatan mutlaqo yangi sharoitda shakllanmoqda. Bu holat, bir tomondan, bilim olish va muloqot imkoniyatlarini kengaytirs, ikkinchi tomondan, ong manipulyatsiyasi, soxta qadriyatlar va axborot xurujlari xavfini kuchaytirmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot jarayonida xorijiy va mahalliy olimlarning raqamli texnologiyalar, internet muhitining yoshlar ruhiyati, ijtimoiy holatiga va ongiga ta'siri bo'yicha olib borgan ilmiy ishlari tahlil qilindi. Jumladan, N.Carr, M.Castells,

D.Tapscott, S.Turkle D.Boyd, K.Young kabi xorijiy olimlar bilan bir qatorda O'zbekiston olimlari N.Jo'rayev, M.Quronov, O.Musurmonova, A.Raxmonov, S.Berdikulova, S.Zayniyeva va S.Xolmatovning axborotlashuv, yoshlar tarbiyasi va ma'naviy xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlari o'rganildi. Adabiyotlar tahlili orqali muammoning nazariy asoslari yoritildi va ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil qilindi.

Mazkur ilmiy tadqiqotda tahlil va sintez – raqamli olam va yoshlar ongiga oid nazariy qarashlarni umumlashtirishda;

Qiyosiy tahlil – an'anaviy va raqamli ijtimoiylashuv modellarini solishtirishda;

Falsafiy-refleksiv yondashuv – raqamli muhitning ongiy jarayonlarga ta'sirini tushuntirishda;

Manbalar tahlili – xorijiy va O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari, normativ-huquqiy hujjatlar va statistik ma'lumotlarni o'rganishda.

Empirik ma'lumotlar ochiq statistik manbalar va sotsiologik tadqiqotlar natijalariga tayanilgan holda sharhlanadi.

Tadqiqot natijalari. Dunyo mamlakatlari qatorida bugun O'zbekistonda ham internet tarmog'idan foydalanish yuqori sur'atlar bilan oshib bormoqda. 2025-yilning yanvar – avgust oylarida O'zbekiston aholisi orasida internetdan foydalanuvchilar ulushi 94,2 foizga yetdi. 2021-yilda bu ko'rsatkich 76,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 83,9 foizga, 2023-yilda 89 foizga, 2024-yilda esa 93,3 foizga yetgan edi.[1]

Internet tarmog'ining mavjudligi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoning globallashtirishini namoyon etish bilan birga yoshlarning tafakkur va idrok jarayonlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. N.Carr "Tarmoq" (Net), aftidan, diqqatimni jamlash va mulohaza yuritish qobiliyatimni yo'qqa chiqarmoqda. Internetda bo'lsam ham, bo'lmasam ham, miyam endi ma'lumotni tarmoq tarqatgani kabi qabul qilishni kutmoqda[2], degan fikrni aytgan edi. Haqiqatdan ham bugungi yoshlarimizning ko'pchiligi o'z fikr va mulohazalarini asoslashda aniq manbalarga tayanish o'rniga internet tarmog'idagi ma'lumotlarga ishonishayotganligi guvohi bo'lmoqdamiz. Bu holat o'qish va tahliliy mushohada jarayonlarida yuzaki yondashuvni kuchaytiradi.

Internetsiz muhitda tafakkur sekin, mantiqiy va tizimli shaklda rivojlanadi. Inson axborotni tez almashuvchi fragmentlar sifatida emas, balki mantiqiy zanjir ko'rinishida qabul qiladi. Haqiqiy bilim shoshqaloqlikdan emas, balki mushohada va tafakkur barqarorligidan kelib chiqadi. Muammoni bartaraf etishda bugungi yoshlarimiz osonlik bilan tarmoqdagi sun'iy intellektlardan foydalanishmoqda. Aslida esa murakkab g'oyalarni uzoq vaqt fikran tahlil qilish, xulosani tayyor axborotdan emas, mustaqil fikrlashdan hamda aniq manbalarga tayangan holda chiqarish kerak.

Inson idrok qilar ekan internetsiz idrok jarayoni yaxlit va chuqur bo'ladi. Voqelikni parchalangan "postlar" yoki "lavhalar" orqali emas, balki butun kontekstda idrok etadi. Psixologiyada bu holat chuqur idrok sifatida izohlanadi. Masalan, kitob mutolaasi jarayonida diqqat bir nuqtaga jamlanadi, tasavvur faol ishlaydi, semantik (ma'noga asoslangan) xotira mustahkamlanadi.

Internetsiz tafakkurda xotira passiv ombor emas, balki faol bilish vositasi sifatida ishlaydi. Axborot tashqi qurilmaga emas, ongning o'ziga yuklanadi. Bu fikr bugungi raqamli davrda yanada dolzarb. Internetsiz sharoitda inson eslab qolishga majbur bo'ladi, tafakkur

mustaqil faoliyat yuritadi, bilim shaxsiy tajribaga aylanadi. A.Erkayevning ta'kidlashicha, mustaqil tafakkur shaxsning voqelikka faol va tanqidiy munosabati orqali namoyon bo'ladi. [3]

Internetsiz tafakkur izchil, chuqur va refleksiv xarakterga ega bo'lib, u insonning mustaqil fikrlashi, axloqiy mas'uliyati va intellektual yetukligini ta'minlaydi. Raqamli muhit esa tafakkurni tezkor va fragmentar shaklga yo'naltirib, chuqur mushohada imkoniyatlarini qisqartiradi. Shu sababli zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, "internetsiz tafakkur makoni"ni saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qozog'istonda olib borilgan sotsiologik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yoshlar orasida axborot manbalari ichida Internet resurslari asosiy o'rin tutadi: 248 nafar ishtirokchidan 173 nafari (taxminan 70 %) zarur axborotni asosan Internet orqali olishini ma'lum qilgan [4]. Markaziy Osiyo mintaqasi mentalitetining deyarli o'xshash ekanligini inobatga olsak, demak O'zbekiston yoshlarida ham shu kabi holat bo'lishi mumkin. S.Xolmatovning fikricha, bu holat yoshlar ongida tezkor, lekin yuzaki axborotni qabul qilish tendensiyasini kuchaytirmoqda [5].

Raqamli axborot muhitining asosiy xususiyatlaridan biri uning tezkorligi va uzluksizligi hisoblanar ekan, ijtimoiy tarmoqlar, yangiliklar lentlari va qisqa video formatlari yoshlarni axborotni qisqa vaqt ichida, katta hajmda qabul qilishga undaydi. Natijada yoshlar ongida tezkor, biroq yuzaki axborotni qabul qilish tendensiyasi shakllanmoqda. Bu holatda axborotning mazmuniy chuqurligidan ko'ra, uning sarlavhasi, vizual ta'siri yoki qisqa xulosasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayon psixologiyada "fragmentar idrok" (biror narsa yoki hodisani to'liq, yaxlit holda emas, balki uning alohida qismlari, sifatlari yoki detallarini ajratgan holda idrok etish, ya'ni butunlik o'rniga parchalar (fragmentlar) ko'rinishida qabul qilish tushuniladi) yoki "klip tafakkuri" (bu ma'lumotni chuqur tahlil qilmasdan, qisqa, tezkor va ajratilgan shaklda qabul qilishga qaratilgan tafakkur shakli bo'lib, internet va raqamli texnologiyalar davrida keng tarqalgan, bunda diqqat qisqa vaqtga jamlanadi va kontekstdan uzilgan holda turli xil ma'lumotlar (klipga o'xshash) o'zlashtiriladi) tushunchalari bilan izohlanadi. Bu kabi tushunchalarga tayanadigan yoshlarimizni bugun biz "Zet" avlod vakillari deya izohlamoqdamiz.

Xo'sh "Zet" avlod kimlar? "Zet" avlod uchun dunyo internet tarmog'i va gadjetlar biror vazifani hal etish vositasigina emas, shaxsiy munosabatlar o'rnatiladigan, nom chiqaradigan, obro'-e'tibor shakllanadigan, o'yin o'ynab chalg'iydigan, son-sanoqsiz videoroliklarni tomosha qilib vaqt o'tkazadigan va boshqa yaxshi-yomon ko'plab hokazo-hokazolarni uchratish mumkin bo'lgan bir makon. Go'yo hayot yon-atrofdan emas, shu quticha (kompyuter, gadjetlar)dagi ovoz va tasvirlar jamlanmasi. Eng yomoni, ma'lumot va axborotlarga yondashuv noto'g'ri, ularni tanlash, tahlil qilish, tanqidiy yondashuv yo'q darajada." [6]

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bugungi dunyo yoshlari o'zlarining mustaqil fikriga to'liq ega emasliklari natijasida, ijtimoiy tarmoqlardagi asoslanmagan ma'lumotlarga yoki yondashuvlarga ergashib ketish ehtimoli juda baland. Shu bilan birga internetga qaramlik nafaqat to'g'ri xulosaga kelish, balki turli xil ruhiy muammolarni ham keltirib chiqaradi.

AQSHdagi Pitsburg universiteti professori, psixolog hamda internetga qaramlik markazi asoschisi Kimberli Su Yang tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 40 foizdan ortiq yoshlar internetga psixologik qaramlik alomatlarini namoyon etmoqda [7].

O'zbekiston sharoitida internet va ijtimoiy tarmoqlarga ortiqcha bog'lanish psixologik va ijtimoiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Internet qaramligi natijasida yoshlar diqqatning pasayishi, hissiy beqarorlik, real hayotdagi ijtimoiy muloqotning sustlashuvi va o'zini ijtimoiy hayotda noqulay his qilish kabi holatlarni boshdan kechirmoqda. A.Raxmonov buni yoshlar ijtimoiylashuv jarayonidagi muhim muammo sifatida baholaydi [8].

Internet va ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazadigan yoshlar real hayotdagi yuzma-yuz muloqot ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Misol uchun talaba do'stlari bilan kafeda yoki guruh mashg'ulotlarida muloqot qilayotganda, ko'p vaqtini Telegram va Instagramda o'tkazganligi sababli suhbatni davom ettira olmaydi, mavzuni to'g'ri izohlay olmaydi va asabiylashadi. Yoki yangi ish boshlagan xodim ofisdagi yig'ilishda fikrini erkin bayon qila olmaydi, ko'p gapiradigan hamkasblar bilan yuzma-yuz muloqot qilishga qo'rqadi.

Bundan tashqari bugungi kunda ommalashgan yana bir holat shuki, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongida o'zini boshqalar bilan solishtirishni kuchaygan. Bu ko'pincha o'z-o'zini qadrsizlantirishga olib keladi, chunki foydalanuvchi faqat boshqalarning muvaffaqiyatlarini, ko'rinishlarini va hayotdagi "ideal" holatlarini ko'radi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda doimiy ravishda boshqalarning mukammal suratlari, sayohatlari yoki muvaffaqiyatlarini ko'rib, o'zini ular bilan solishtiradi va o'zining qobiliyatlari, tashqi ko'rinishi yoki hayotiy yutuqlarini yetarli deb his qilmaydi. Shuningdek, "like" va izohlar orqali o'z qadrini baholashga moyil bo'ladi. Agar post ko'p layk olmasa, bu ularni ruhiy jihatdan tushkunlikka soladi va o'z-o'zini qadrsizlantirishga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Internet va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'sirini quyidagilarda deb aytish mumkin:

- O'z fikriga ega bo'lmaslik;
- Ruhiy beqarorlik;
- Ko'r-ko'rona ishonish;
- Yuza-yuz muloqot ko'nikmasining susayishi;
- Ijtimoiy solishtirish va o'z-o'zini qadrsizlantirish;
- Vaqtni behuda sarflash.

Internetning nafaqat salbiy balki ijobiy tarafini ham muhokama qilish shart. Raqamli olam orqali yoshlar o'zini ifoda etish, bilim olish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'lishi mumkin. "Internet tizimi yoshlar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning ma'naviy tarbiyasi, bilim olish va o'zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytiradi." [9]

Bilim olish va intellektual rivojlanish. Internet va raqamli resurslar yoshlar uchun cheksiz bilim manbai sifatida xizmat qiladi. Masalan, ilmiy maqolalar, elektron kitoblar, onlayn kurslar va videodarsliklar yordamida talabalar va o'quvchilar o'z qiziqishlariga mos fanlarni chuqur o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, tanqidiy fikrlash va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Internet platformalarida mavjud bo'lgan bepul ta'lim resurslari yoshlar tomonidan masofaviy o'rganish jarayonida keng foydalaniladi. Shu tariqa, ular mustaqil bilim olishga o'rgangan holda tadqiqot ishlarini bajarish qobiliyatini oshiradi.

O'zini ifoda etish va ijodiy faoliyat. Raqamli platformalar yoshlar uchun o'z fikrini va ijodiy ishlarini namoyish qilish imkoniyatini beradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning san'at, yozuv, musiqa yoki dizayn sohasidagi ijodiy salohiyatini kengaytiradi. Misol uchun, biror

yosh rassom o'z ishlarini tarmoqda namoyish qilib, professional hamkorlik va tanqidiy fikrlarni olish imkoniga ega bo'ladi. Shu tariqa, yosh ijodkorlar o'z ishlarini rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlar orqali tajriba almashish va real dunyoda o'zini tasdiqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'i sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, onlayn forumlar, guruhlar va chatlar orqali yoshlar bir-biri bilan fikr almashadi, muammolarini muhokama qiladi va ijtimoiy yordam oladi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy izolyatsiya yoki real hayotdagi cheklangan muloqot muhitida muhim ahamiyatga ega. Onlayn guruhlar orqali yoshlar bir-birining ishini baholab, maslahatlar oladi va birgalikda loyihalarni amalga oshiradi. Shu bilan birga, ruhiy qo'llab-quvvatlash va motivatsiyani oshiradi.

Ijtimoiy va global aloqalarni rivojlantirish. Internet yoshlar uchun global tarmoq bilan bog'lanish imkoniyatini yaratadi. Ular turli madaniyatlar, tillar va fanlar bilan tanishadi, bu esa ijtimoiy tafakkur va madaniy ongni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha onlayn platformalar yoshlarni chet ellik tengdoshlar bilan muloqot qilishga, birgalikda ilmiy loyihalar qilishga undaydi.

"Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ta'lim, kommunikatsiya, ijtimoiy faollik va jamiyat bilan bog'lanish imkoniyatlarini oshiruvchi vosita" [10] hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy tarafi:

- Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ruhiy yordam;
- O'zini ifoda etish va shaxsiy rivojlanish;
- Ijtimoiy tarmoqlar orqali ta'lim olish;
- Yoshlar dunyoqarashini shakllantiruvchi ijtimoiy maydon.

Xulosa qilib aytganda, raqamli olam yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu ta'sirni ijobiy yo'nalishga burish uchun ta'lim tizimi, oila va jamiyat hamkorlikda harakat qilishi lozim. Yoshlarni tanqidiy fikrlashga, axborotni saralashga va raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanishga o'rgatish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://uz.kursiv.media/uz/2025-09-30/ozbekistonda-internetdan-foydalanuvchilar-soni-94-foizdan-oshdi/>
2. Carr N. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. – New York: Norton, 2010.
3. Erkayev A. Ma'naviyat va tafakkur. – T.: Ma'naviyat, 2004.
4. Yessenbekova U.M., Aldabergenova Z.Z., Mamankul A.A., Rakhymbayev N., & Kutym B. (2025). The Impact of the Digital Format on Kazakh Youth's Information Consumption and Reading Culture. Publishing Research Quarterly, 41, 113–131. <https://doi.org/10.1007/s12109-024-10012-6>
5. Xolmatov S. Internet muhitida yoshlar ijtimoiylashuvi masalalari. – Toshkent, 2022.
6. <https://yuz.uz/uz/news/zummerlar-internet--bu-hayot-yoxud-klip-fikrlash-shakliga-qobiqlanayotgan-avlod>
7. Young K. Internet Addiction. Wiley, 2011.
8. <https://ru.scribd.com/document/74854320/Internet-Addiction>
9. Raxmonov A. Raqamli madaniyat va ta'lim tizimi integratsiyasi. // "Pedagogik ta'lim" jurnali, 2021.
10. Berdikulova, S.A. & Karimov, O.M. (2023). Influence of the Internet system on youth spiritual education. Uzbek Scholar Journal, 20, 24-26. <https://uzbekscholar.com/index.php/uzs/article/view/706>

11. Zayniyeva, S.S.Q. (2024). The role of social media in the lives of young people in Uzbekistan. OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATIONNYE IDEI V MIRE, 58(8), 9-11.
<https://scientific-jl.org/obr/article/view/4654>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).